

O'zbekiston Qoraqalpog'iston shamol elektr stansiyasi

Mamlakat:	O'zbekiston
Loyiha raqami:	53244
Faoliyat sohasi:	Energetika
Bildirishnoma turi:	XUSUSIY
Ekologik toifasi:	B
Tasdiqlanish muddati sanasi:	2023-yil, 26-aprel
Qaysi bosqichdaligi:	Qo'l qo'yilgan
Loyihaning qisqacha mazmuni chop etilgan sana:	2023-yil, 14-iyun

Loyiha mazmuni

O'zbekistonning Qoraqalpog'iston Respublikasi Qorao'zak tumanidagi Qorator tog'li hududida nominal quvvati 100 MVt bo'lgan shamol elektr stansiyasini loyihalash, qurish va undan foydalanish uchun 19,3 million AQSH dollarigacha bo'lgan uzoq muddatli birinchi navbatdagi kreditni taqdim etish. Loyiha O'zbekistonda yangi tashkil etilgan maxsus maqsadli tashkilot tomonidan ishlab chiqiladi va u loyihani moliyalashtirish uchun qarz oluvchi sifatida faoliyat ko'rsatadi. Saudiya Arabistonining "ACWA Power Company" ("ACWA Power") kompaniyasi loyiha homiysi sifatida ishtirok etadi.

Loyiha maqsadi

Mazkur loyiha O'zbekiston energetika tizimiga 100 MVt qo'shimcha shamol energiyasini yetkazib berish imkonini beradi. Mazkur Loyiha mamlakatning milliy energetika balansida qayta tiklanuvchi energiya manbalari bo'yicha loyihalarning hissasini oshirish borasidagi O'zbekiston hukumatining strategik maqsadlarini amalga oshirishga xizmat qilishi barobarida, mamlakatning past uglerodli tizimga o'tishiga yordam beradi. Shuningdek, ushbu loyiha atrof-muhitga sezilarli foyda keltirib, hisob-kitoblarga ko'ra, yiliga atmosferaga chiqariladigan 178 000 tonnadan ortiq karbonat angdrid (CO₂) emissiyasining oldini oladi.

O'tish davri ta'siri

Kutilayotgan o'tish davri ta'sirining bahosi: 80

Loyihaning o'tish davri ta'siri YTTBning Yashil iqtisodiyotga o'tish ("GET") yondashuviga Loyihaning potensial hissasi bilan bog'liqdir, chunki u yordamida shamol energiyasidan foydalangan holda elektr tokini ishlab chiqarishni ko'zda tutganligi sababli, u mamlakatning past uglerodli tizimga o'tishiga yordam beradi hamda hozirgi kundagi issiqlik elektr stansiyasiga jiddiy tayanib qolish darajasini muayyan darajada pasaytiradi. Loyihaning o'tish davri ta'siri, shuningdek, xususiy tasarruf etiladigan kompaniya tomonidan yangi energiya quvvatlarni qo'shish orqali O'zbekistonning hozirgi davlat boshqaruvidagi energetika sektoriga sezilarli hissasi bilan bog'liq bo'lishi kutilmoqda.

Mijoz haqida

ACWA POWER WIND KARATAU MCHJ XK

ACWA Power Wind Karatau MCHJ XK ("Qarz oluvchi") aynan shu loyihani amalga oshirish uchun O'zbekistonda ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyat hisoblanadi.

ACWA Power elektr energiyasi ishlab chiqarish, suvni chuchuklashtirish hamda yashil vodorod ishlab chiqarish bo'yicha xalqaro loyihalar ishlab chiquvchi kompaniya sanaladi.

YTTBdan ajratiluvchi moliyaviy mablag'lar

Qarz oluvchiga 100 MVt quvvatga ega shamol elektr stansiyasi loyihasini ishlab chiqishni moliyalashtirish uchun 19,3 million AQSH dollarigacha bo'lgan kredit mablag'lari. Loyihani YTTBdan tashqari boshqa bir qator xalqaro moliya institutlari ham qo'llab-quvvatlashi ko'zda tutilmoqda.

Loyihaning umumiy qiymati

Jami 118.1 million AQSH dollarigacha bo'lgan Loyiha qiymati loyihalash-xaridlar-qurilish (EPC) uchun xarajatlar, bunga taalluqli bo'lmagan xarajatlar va moliyaviy xarajatlardan tashkil topgan.

Qo'shimchalilik sharti

Moliyaviy tuzilma: Bank ushbu yirik infratuzilma loyihasi uchun, xususan, COVID-19 pandemiyasi oqibatida yuzaga kelgan likvidlik cheklangan sharoitda mahalliy bozorda mavjud bo'lmagan shartlarda moliyalashtirishni taklif qilmoqda.

Siyosiy, sohaviy, institutsional yoki me'yoriy o'zgarishlar: Bank O'zbekistonda siyosiy muloqotni rivojlantirishda faol ishtirok etmoqda. Bu loyiha mamlakatning qayta tiklanuvchi energiya sektori uchun muhim bosqich bo'lib, O'zbekistonda tenderga qo'yilgan birinchi shamol energetikasi loyihasidir.

Ekologik-ijtimoiy xulosa

Loyiha shamol energetikasiga oid ekanligi, bioxilmaxillik va yerdan foydalanishga potensial ta'sir qilishi hisobga olingan holda "B" toifasiga (Ekologik va ijtimoiy siyosat – ESP 2019) va xavf-xatari yuqoridan o'rtachagacha bo'lgan darajaga kiritilgan.

Nukus SHES qonuniy muhofaza qilinadigan yoki xalqaro tan olingan hududda joylashmagan. Loyiha maydoniga ikkita eng yaqin Ximoyalangan Zonalar bular Quyi Amudaryo biosfera rezervati va Baday Tungay qo'riqxonasi bo'lib, ular loyiha maydonidan mos ravishda 15 km va 20 km masofada joylashgan.

ACWA Power Bankka O'zbekistondagi boshqa loyihalar orqali yaxshi tanish. Kompaniya atrof-muhit va ijtimoiy (E&S) boshqaruv tizimini (ESMS) yaratgan va oldingi bitimlar uchun ishlab chiqilgan Ekologik va ijtimoiy chora-tadbirlar rejalarini (ESAP) tegishli tarzda amalga oshirib kelmoqda.

Kreditorlar tomonidan mustaqil maslahatchi yollangan va u tomonidan Ekologik va ijtimoiy ekspertizasi ("ESDD") amalga oshirilgan, shu jumladan Qarz oluvchining atrof-muhit va ijtimoiy ta'sirni baholashning ("ESIA") bo'shliqlarini tahlil qilish, Loyiha va unga taalluqli infratuzilmalarning umumiy ta'sirini baholash, stansiyaning qurish va undan foydalanish davridagi gender masalalariga oid, mehnat va ta'minot zanjiri bilan bog'liq xavflarini baholash. Ekologik va ijtimoiy ekspertizasi ("ESDD") ikkita kreditorlar, DEG and Proparco, bilan birgalikda amalga oshirilgan. Global turbinalar yetkazib beruvchi Envision Energy kompaniyasida ta'minot zanjiri bo'yicha kengaytirilgan tekshiruv ishlari o'tkazildi va hech qanday majburiy yoki bolalar mehnati aniqlanmadi. Tashqi mehnatni baholash orqali bir qator xulosalar va tavsiyalarni ishlab chiqildi hamda ular Qarz oluvchi va uning Yetkazib beruvchisi tomonidan tuzatuvchi chora-tadbirlar rejasi ("CAP"), shartnoma talablari, loyiha ta'minot zanjiridagi mehnatga oid xavflarning doimiy monitoringi va hisoboti orqali amalga oshirilmoqda.

Ekologik va ijtimoiy ekspertiza (ESDD) ga asosan Loyiha O'ta yashash muhitini (CH) hech bir hayvon turi uchun qo'zg'atmaydi, biroq bir qator turlar biologik xilma-xillikning ustuvor xususiyatlari (PBF) sifatida aniqlandi, ular uchun biologik xilma-xillikning yo'qotilishi bo'lmasligiga (NNL) erishish uchun choralar ishlab chiqildi. Shu sababli, Ekologik va ijtimoiy chora-tadbirlar rejasiga (ESAP) hayvon turlarini saqlab qolish uchun bir qator tadbirlar kiritilgan, masalan, noqonuniy ov bilan kurashishda biosfera qo'riqchilariga yordam berish, turlarning yashash muhitini yaxshilash va boshqalar, birinchi uch yil davomida qushlarni monitoring qilish orqali taklif qilingan yumshatish choralari samaradorligini baholash.

Ushbu Ekologik va ijtimoiy ekspertiza (ESDD), shu jumladan ta'minot zanjiri ekspertizasi (SCDD) asosida korporativ va loyihaga xos talablarni o'z ichiga olgan batafsil Ekologik va ijtimoiy chora-tadbirlar rejasi (ESAP) ishlab chiqilgan hamda Qarz oluvchi va kreditorlar bilan kelishilgan.

Kompaniya tomonidan loyiha doirasida o'tkazilgan ekologik va ijtimoiy baholashlarga asoslangan Texnik bo'lmagan xulosa (NTS) va manfaatdor tomonlarni jalb qilish rejasi (SEP) ishlab chiqildi. Mazkur hujjatlar Kompaniyaning veb-saytida e'lon qilingan (<https://www.acwapower.com/en/projects/karatau-wind-ipp>).

Texnik ko'mak

Ko'zda tutilmagan.

Kompaniyaga murojaat qilish uchun ma'lumot

Javid Alifli

jalifli@acwapower.com

+994 12 465 99 38

<https://acwapower.com/>

Loyihaning qisqacha mazmuni (PSD) oxirgi yangilangan sana

14 iyun 2023 yil

Tegishli hujjatlar

- [Translation: Uzbekistan Karakalpakstan WPP \(Uzbek\)](#)
Type: PDF, Published: 30.06.2022, Language: Uzbek
- [Translation: Uzbekistan Karakalpakstan WPP \(Russian\)](#)
Type: PDF, Published: 27.06.2022, Language: Russian

O'tish davri nima

O'tish davri ta'sirini baholash bo'yicha YTTB yondashuvi haqidagi qo'shimcha ma'lumotni [mana bu havoladan](#) olishingiz mumkin.

Loyihalarda ishtirok etish uchun imkoniyatlar

Loyihada yoki xaridlarda ishtirok etish uchun mijoz kompaniyaga murojaat qiling.

YTTB bilan (xaridlarga oid bo'lmagan masalalarda) hamkorlik qilish uchun quyidagi telefon yoki elektron pochta orqali bog'laning:

Tel: +44 20 7338 7168

E-manzil: projectenquiries@ebrd.com

Davlat sektoridagi loyihalar uchun [YTTB xaridlari](#) sahifasiga o'ting:

Tel: +44 20 7338 6794

E-manzil: procurement@ebrd.com

Umumiy ma'lumotlar

Aniq so'rovlar [YTTB so'rovlar shakli](#) dan foydalangan holda berilishi mumkin.

Ekologik va ijtimoiy siyosat (ESP)

YTTB o'zining "ekologik jihatdan mas'ul va barqaror rivojlantirish" tashabbusini ilgari surishda [Ekologik va ijtimoiy siyosat](#) va uning tarkibiy qismi bo'lgan loyiha talablari (PR) Bank loyihasini amalda qo'llash tartibini belgilab beradi. ESP va PR tegishli milliy qonunchilik doirasida Bank mijozlarining keng jamoatchilikka axborot berishi va maslahatlashishini ta'minlash, shuningdek manfaatdor tomonlarning xavotirlari va shikoyatlarini, ayniqsa, ekologik va ijtimoiy muammolarni ko'rib chiqish va hal qilishga yordam beradigan mexanizmni yaratishdagi aniq talablarni o'z ichiga oladi. Loyihaning ekologik va ijtimoiy risklarni va ta'sirining mohiyati va ko'lamidan kelib chiqqan holda, zarurat tug'ilganda, YTTB o'z mijozlaridan qo'shimcha ravishda loyihalarning risklarni va ta'sirlari haqida ma'lumotni oshkor qilishni, shuningdek, manfaatdor tomonlar bilan batafsil fikr almashish va muammolar yuzasidan choralar ko'rilishini talab qiladi.

Bu sohada YTTBning tajribasi bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar ESPning quyidagi [sahifasida](#) keltirilgan.

Ish faoliyatidagi halollik va belgilangan me'yorlarga rioya qilish

YTTBning muvofiqlik nazorati boshqarmasi (OCCO) Bankda mas'uliyatli boshqaruvga ko'maklashish bilan birga Bank faoliyatining barcha jabhalarida eng yuqori standartlarda ish olib borilishini va barcha jarayonlar ilg'or xalqaro tajribalarga muvofiq bo'lishini ta'minlaydi. Bankning barcha mijozlari uchun ularning ish faoliyatidagi halolligini tekshirishdan maqsad, Bank loyihalari uchun qabul qilinishi mumkin bo'lmagan huquqiy va nufuzga oid risklarga yo'l qo'yilmaslikdan iborat. Bank nuqtai nazariga ko'ra, loyihani dastlabki baholash va tasdiqlash bosqichida muammoli jihatlarni aniqlash va ularni bartaraf qilish Bank faoliyati nufuziga putur yetkazmaslikning eng samarali vositasidir. OCCO ushbu profilaktika chora-tadbirlarida muhim ahamiyatga egaligi bilan birga investitsiya qilinganidan keyingi davrda Bankning nufuziga xavf soladigan risklarni nazorat qilishga yordam beradi.

OCCO, shuningdek, YTTB tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihalar doirasidagi firibgarlik, korrupsiya va lavozimni suiiste'mol qilish bo'yicha ma'lumotni tekshiruvchi mas'ul hisoblanadi. Agar kimningdir Bank ichida yoki undan tashqarida firibgarlik yoki korrupsiya holatlari kuzatilayotganligi haqida gumoni bo'lsa, u muvofiqlik nazorati boshqarmasi boshlig'iga bu holat haqida yozma tarzda compliance@ebrd.com elektron pochta orqali xabar qilishi lozim. Barcha bildirilgan daliliy ma'lumotlar tegishli choralar ko'rish uchun OCCO tomonidan ko'rib chiqiladi. Barcha xabarlar, shu jumladan anonim tarzda xabarlar ham tekshirib chiqiladi. Bu turdagi xabarlar istalgan tilda, jumladan Bank faoliyat ko'rsatayotgan mamlakatdagi rasmiy tilda tayyorlanishi mumkin. Bunday ma'lumotlar yaxshi niyatni ko'zlashi maqsadga muvofiqdir.

Axborotdan erkin foydalanish siyosati (AIP)

2020-yilning 1-yanvarida kuchga kirgan IAP YTTBning strategiyalari, siyosatlari va amaliyotlarini yaxshiroq tushunish va bilishga ko'maklashish uchun manfaatdor tomonlarga ma'lumotlarni ochiqlash bilan birga maslahatlashuvlar tartibini belgilab beradi. YTTB veb-saytidan qanday ma'lumotlar olish mumkinligini bilish uchun [Axborotdan foydalanish siyosati](#) sahifasiga o'ting.

Muayyan savollaringizni [YTTBning ma'lumot so'rovi](#) orqali yuborishingiz mumkin.

Loyiha hisobdorligi mustaqil mexanizmi (IPAM)

Agar jismoniy yoki yuridik shaxslarning ekologik-ijtimoiy sohadagi yoki axborotni oshkor qilish borasidagi xavotirlarini (masalan, loyiha darajasida mijozlar tomonidan yaratilgan shikoyatlar mexanizmi yoki Bankning amaliyot boshqaruvi bilan bevosita o'zaro aloqa qilish orqali) qanoatlantirishga bo'lgan urinishlari samarasiz bo'lsa, ular YTTBning Loyiha hisobdorligi mustaqil mexanizmi ya'ni IPAM yordamida o'zlarining o'sha xavotirlarini bildirishlari mumkin.

IPAM, arizachilarning fikriga ko'ra, zarar yetkazishga ulgurgan yoki kelajakda zarar yetkazishi mumkin bo'lgan loyihaning muammolarini mustaqil ravishda baholaydi. Ushbu mexanizmning maqsadi loyihaning manfaatdor tomonlari o'rtasida ekologik, ijtimoiy va axborotni ommaviy oshkor qilish bo'yicha muammolarini hal etishdagi murosani qo'llab-quvvatlash, Bank o'zining [Ekologik va ijtimoiy siyosatiga](#) yoki [Axborotdan erkin foydalanish siyosatining](#) loyihaga oid tartiblariga rioya qilayotganini tekshirish va zarur hollarda, kelajakda ushbu qoidalarga rioya qilmaslik holatlarini bartaraf etish, shuningdek, Bank tomonidan kelgusida bunday holatlarning oldini olishdan iborat.

IPAM va uning vakolatlari haqida batafsil ma'lumot olish, ko'rib chiqilishi kerak bo'ladigan [shikoyatlarni jo'natish](#) uchun [Loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi vebsaytiga](#) kirishingiz yoki tavsiyalar olish hamda IPAM haqida qo'shimcha ma'lumot olish va shikoyat jo'natish uchun ipam@ebrd.com elektron pochta orqali biz bilan bog'lanishingiz mumkin.